


Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
O‘zbekiston Respublikasida urologik infeksiyalar va ularning bakteriologik peyzaji, rezistentligini tahlil qilish va baholash orqali siydik yo‘llari infeksiyalarini davolash usullarini takomillashtirish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Zamonaviy uskunalar orqali urologik infeksiyalarining bakteriologik peyzaji elektron bazasini yaratish; - Bakteriologik peyzajni aniqlash va antibiotiklarga rezistentligini baholash; - Respublika miqyosida urologik bemorlarda antibakterial dori vositalarini qo‘llashni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyanoma ishlab chiqish; - Siydik yo‘llari infeksiyalarini tashxislash va davolash natijalarini yaxshilash; Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy- amaliy tibbiyot markazida sinovdan o‘tkaziladi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi amaliyotiga tatbiq etiladi. Ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sog‘liqni saqlash vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.